

**Saodat ISRAILOVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti dots.v.b., f.f.d*  
*E-mail:israilovas404@gmail.ru*  
*Tel: +99890 3546695*

*ToshDO'TAU professori, f.f.d. Z.Xolmanova taqrizi asosida*

## SEMANTICS OF "KOK" CORE UNITS IN KAZAKH, TURKISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

It is natural that, as the society enters the hot stage of development, a unique development takes place in our language. Therefore, the development of words in the language in terms of form and meaning requires a wider study of these relationships. Words have different forms and meanings. Some words are different in form but close in meaning, others are the same in form but have different meanings, and some are opposite words possible. Semantic paradigm provides a certain scientific idea about the process of meaning formation. We will try to reveal the semantic possibilities of the lexeme through the semantics of other units related to it and related to it.

**Key words:** Semantics, paradigm, semantic analysis, semantic paradigm, syntagmatic relations, "kok" core units.

## СЕМАНТИКА «КОК» ОСНОВНЫХ ЕДИНИЦ НА КАЗАХСКОМ, ТУРЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.

Аннотация

Естественно, что по мере того, как общество вступает в горячую стадию развития, в нашем языке происходит уникальное развитие. Поэтому развитие слов в языке по форме и значению требует более широкого изучения этих связей. Слова имеют разные формы и значения. Некоторые слова различны по форме, но близки по значению, другие одинаковы по форме, но имеют разное значение, а некоторые являются противоположными словами. Семантическая парадигма дает определенное научное представление о процессе смыслообразования. Мы попытаемся раскрыть семантические возможности лексемы через семантику других родственных ей и связанных с ней единиц.

**Ключевые слова:** Семантика, парадигма, семантический анализ, семантическая парадигма, синтагматические отношения, «кок» основные единицы.

## QOZOQ, TURK VA O'ZBEK TILLARIDA "KO'K YADROLI BIRLIKLARNING SEMANTIKASI

Annotatsiya

Jamiyat rivojlanishining qizg'in pallasiga kirgani sari tilimizda o'ziga xos taraqqiyot yuz berishi tabiiydir. Binobarin, tilgari so'zlarning shakl va ma'no jihatdan taraqqiy etishi ulardagi ushbu munosabatlarni kengroq tadqiq etishni taqozo etadi. So'zlarning o'zaro shakl va ma'no munosabatlari turlicha. Ayrim so'zlar shaklan har xil, lekin ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa, boshqalari shaklan bir xil, ammo ma'nolari turli xil, ba'zilari esa bir-biriga qarama-qarshi so'zlar ham bo'lishi mumkin. Semantik paradigma ma'no shakllanish jarayoni haqida ma'lum ilmiy tasavvur beradi. "Ko'k" leksemasi ishtirokidagi iboralar tahlilini leksemaning semantik imkoniyatlarini unga yondosh, u bilan bog'langan boshqa birliklar semantikasi orqali ochib berishga harakat qilamiz.

**Kalit so'zlar:** Semantika, paradigma, semantik tahlil, semantik paradigma, sintagmatik munosabatlar, "ko'k" yadroli birliklar.

**Kirish.** Sintagmatikada lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar aniqligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Qiyoslang: Ekilgan ko'chatlar viqor bilan ko'kka bo'y cho'za boshladi. Ko'rinish turibdiki, nutq faoliyatida muayyan "yotiq chiziq"qa joylashib, muayyan tartibda, mantiqiy ketma-ketlikda kelgan birliklar orasidagi munosabatlar sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintagmatik munosabatlar doimo yaqqol ta'sir qilishi □ insonda lisoniy sezgi uyg'otishi bilan ham o'ziga xosdir.

Sintagmatik munosabatlar nutq faoliyatidagi birliklar aloqasi, munosabati sifatida, paradigmatic munosabat birliklaridan farqli, bir guruh birliklari orasida ham, shuningdek, turli guruh birliklari orasida ham mavjud bo'lishi mumkin. Qiyoslang: Ko'klam kirib keldi va hammayoq yashilga burkandi. Ushbu birliklardan har biri o'zi tegishli bo'lgan guruhning-paradigmatikaning vakili hisoblanadi. Demak, sintagmatikadagi munosabatlar muayyan birliklar-so'zlar munosabati sifatida emas, balki guruhlar-sinflar, paradigmalar sistemasi munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada "ko'k" yadroli birliklarning semantikasi turk, qozoq va o'zbek tillarida qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Turli tillardagi birliklarning semantik paradigmadagi o'rni misollar bilan ochib berilgan. Sintaktikasi va semantikasi o'zaro qiyoslangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur masalani hal qilishda dastlab turk, qozoq va o'zbek tillaridagi "ko'k" yadroli birliklar, iboralar hamda paremlar solishtirildi. Mazkur tillardagi lug'atlarga murojaat qilindi va bu birliklar qiyoslanib tahlil qilindi.

Sintagmatik munosabatlar shunday munosabatlarki, ularga ko'ra til aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi, ya'ni tilning kommunikativ vazifasi sintagmatik munosabatda namoyon bo'ladi va shu munosabatga tayanadi.

Demak, paradigmatic va sintagmatik munosabatlar o'zaro dialektik bog'liqlikda, bir butun, yaxlit holda sistemalar umumiyligi, jami sifatida tilning aloqa quroli bo'lib xizmat qilishini, ijtimoiy-amaliy faoliyatini ta'minlaydi.

**Tahlil va natijalar.** "Ko'k" leksemasi va uning sinonimlari doirasida sintagmatik munosabatlar nutqiy hosila birliklar yordamida shakllanadi. Biz ularning hosilalarini ko'rib chiqamiz. "Ko'k" leksemasining birinchi uzual semasi bu rang semasidir.

Ko'k yadroli iboralar tilimizda ko'plab uchraydi. Ko'k yadroli "Ko'kning hidini olgan sigir boyloqda turmas", "Ko'kka boqqan yiqilur, loy-botqoqqa tiqilur", "Ko'k kirsin, qizil chiqsin", "Ko'kdan arpa yog'sa ham, eshakning yemi – nimcha" (nimcha – "nimxo'rd" ham derdilar, chorakning to'rtidan biri, botmonning esa 256 dan biri), "Kekkeyganga kekkeygin boshing ko'kka yetguncha, enkayganga enkaygin boshing yerga tekuncha", "Daraxt bir joyda ko'karadi", "Dalaning ko'kiga ishonma, odamning – po'kiga", "Ko'kini ko'rib, ko'ksingni kerma", "Dalaning ko'kiga ishonguncha, otangning go'riga ishon", "Duo bilan el ko'karar, yomg'ir bilan yer ko'karar", "Duo olgan ko'karar, tuhmat olgan oqarar", "Tinchlik bilan el ko'karar, yomg'ir bilan – yer", "Ayol yerdan chiqqan emas, erkak bolasi, erkak ko'kdan tushgan emas, ayol bolasi", "Aql ko'pga yetkazar, hunar –

ko'kka", "Odobli o'g'il – ko'kdagi yulduz, odobli qiz – yoqadagi qunduz", "Oydinda oq kiygan, ko'lankada ko'k kiyar" paremiyalari "belgi", "osmon", "yuksaklik" semalari asosida turli mental mazmuni ifodalashga yo'naltirilgan.

Xususan, qozoq tilida ham "ko'k" leksemasi bilan shakllangan quyidagicha milliy-madaniy birliklarni uchratamiz: "Ko'k" leksemasining "osmon" ma'nosidagi lisoniy birliklari: kek jzyi → osmon (ko'k yuzi); kek kymbez → falak; kek qasqa aytu → qurbon qilmoq; qurbonlik qilish (otni); kek seŋgir → cho'qqi; kek tireu → juda baland ko'tarilmoq; osmonga egilib; kekke boylau → baland o'smoq (daraxtlar haqida); kekke boylag'an qayındar → baland qayinlar; kekke boylag'an mұnaralar → baland minoralar (ko'kka cho'zilgan minoralar); kekke keteru → maqtov (ko'kka ko'tarmoq); kekke keterilu → baland uchmoq; ko'tarilish; kekke qarau → takabbur; o'zini boshqalardan ustun qo'ymoq; kekke qylash yru → yuksaklikka intilmoq; kekke samg'au → osmonga uchmoq; kekke qalyqtau → osmonda uchmoq (qush haqida); kekpen talasqan → juda baland; kekten tyskendey → osmondan tushgandek, birdan; olardyn arasy jer men kektey → ular orasidagi farq osmon bilan yer orasidagi kabi.

Jumladan, kek ayyl → janjal; yomon (ayolga nisbatan); kek ala qoyday sabau → qattiq urish; kek asyq → kuchga kirmaslik; mo'rt (hayvonlar haqida); kek ayuz → gapiruvchi, g'iybatchi, bekorchi; kek ayaz → nam (tuproq haqida); pishirilmagan (nondan); kek baqa yet → juda yog'siz go'sht; kek beren → chidamli, kuchli odam; kek byyra → nosvoy navi; kek yetikti kezdespey, ken yetiktige barmay otyr → munosib kuyovni uchratmadi, xuddi etikka o'xshab loyig'i chiqmadi; kek jalqau → haqiqiy dangasa; kek jasyq → yog'siz go'sht; kek jelke → chayqalish; boshning orqa tomoni; kek jylın bolu → juda zaiflashmoq, ta'qib qilish; kek ineni ketinen tyrte bilmeydi → u umuman mutaxassis emas (tikishni bilmaydigan yoki uni mohirona bajarishni bilmaydigan qiz yoki ayol haqida); kek ıyq bolu → bezovta qilmoq; bosib ketish; kek ıyq qylu → bezovta qilmoq; bosib ketish; kek malta → bekorchi; kek mi → ahmoq; kek moıyın → aroq (ichimlik turiga nisbatan); kek myzg'a otyrg'yzu → aldamoq; kek mұzdaq → ko'k muzdak muz qobig'iga; kek myllym → gapiruvchi, bekorchi; kek ozek → oziq-ovqat va ozuqa zahiralari tugaydigan bahor davri; kek ozek bolu → och qolmoq; bahorda madori qurimoq; kek erim → yosh ko'katlar; o'smir; kek salpaq → erish; kek syt → yog'sizlangan sut; kek tayg'aq → qattiq muzlagan; kek tyın joq → bir tiyin yo'q; kek tyqıl → soqolsiz odam; kek sheshek shyqqrı! → chechak kasalligiga chalingur (qarg'ish ma'nosida); kek shulan → tajribali (bo'ri haqida); kek shybyq → novda; kekti kekiretip jerdi titiretti → ko'z yoshlari daryo bo'ldi; kek atsın → Xudo ursin; kek soqqrı! → ex, la'nati; kekke bag'u → ko'kka boqib; kekten syrag'any jerden tabylıy → ko'kdan so'ragani, yerdan topildi yoki bandasidan so'raganini Xudo berdi kabi mental birliklar "ko'k" leksemasining tilda qay darajada iste'molda ekanligini ko'rsatadi.

Qozoq tilida "ko'k" leksemasi ishtirokidagi birikuvlarning quyidagi ko'rinishlari o'zbek adabiy tilida ishlatilmaydi: kek sheshek→chechak (kasallik): o'zbek tilida ko'k rang leksemasi chechakka nisbatan sifatlovchi vazifasida ishlatilmaydi. Suv chechak ko'rinishi uchraydi. Kek tas→qabr toshi birikuvi qozoq tilidagi ma'noda qo'llanmaydi. O'zbek toponimlari orasida Ko'ktosh nomi uchraydi. Aqshyl kek qozoq tilida "zangori" ma'nosida qo'llanadi. O'zbek tilida aqshyl kek o'rinda ko'kish, och ko'k so'z va birikmalari qo'llanadi. Kek zeŋgir birikuvi "jozibali" ma'nosida ishlatiladi. Kek syr "och kulrang"ni ifodalagan. Kek tytin "kulrang tutun" ma'nosida qo'llanadi. O'zbek tilida ko'k sifati tutunga nisbatan ishlatilmaydi. Qara kek qozoq tilida "to'q ko'k" havo rangni bildiradi. Qora so'zi o'zbek tilida ko'k rangiga leksik daraja hosil qilish vositasi sifatida birikib kelmaydi. Qora qizil birikmasi shevalarda ishlatilib, to'q qizil rangni ifodalashga xizmat qiladi.

Kek ala "och ola kulrang (otning rangi haqida)" birikuvi ham o'zbek tilida mavjud emas. Kek boz qozoq tilida "to'q kulrang"ni bildirgan. Kek boz at "to'q kulrang ot"ni tasvirlashga xizmat qilgan. O'zbek tilida faqat bo'z ot ishlatiladi. Kek so'zi qozoq tilida soqolga nisbatan ishlatilib, "oqish" ma'nosini anglatadi: kek burıl saqal "oqish soqol". O'zbek tilida mosh-guruch, oqish sifatlashlari bilan keladi.

Kek qozoq tilida tumanga nisbatan qo'llanib, uning zichligini aks ettiradi. Bu birikuvda ko'k leksemasining "qalin", "ko'p" semalari namoyon bo'lgan: kek tyman → zich tuman. Kekjal o'zbek tilidagi "ko'k yol" birikuviga teng keladi. Bu o'rinda ko'k so'zi bo'ringa yolg'a nisbatan sifatlovchi bo'lib qo'llangan, "tajribali" degan semani ifodalashga xizmat qilgan. Kek shalg'ın birikmasi "baland, zich yashil o't" tushunchasini ifodalaydi. Kek shep "ko'k o't; sabza" ni ifodalaydi.

O'zbek tilida cho'p so'zi forscha-tojikcha so'z bo'lib, "daraxt, yog'och; xoda; hasca". 1. Novda, shox bo'lagi; ingichka, uzun tarasha, yog'och parchasi. 2. Biror maqsad uchun maxsus tayyorlangan tayoq(cha). 3. Molga ovqat bo'ladigan quruq o't, xas-xashak (beda, pichan va sh. k.). 4. O'simlik, g'iyoh (O'TIL,IV,526). So'z izohidan ko'rinadiki, cho'p leksemasi tarkibida "quruqlik" semasi mavjud bo'lib, o'zbek tilida ko'k cho'p birikuvi ishlatilmaydi. "Ko'k" leksemasidagi "yoshlik", "namlik" semalari uni cho'p so'zi bilan biriktirish imkonini bermaydi.

Aytish mumkinki, sintagmatikada-sintagmatik munosabatda ishtirok etuvchi har bir lisoniy birlik o'zining muayyan o'rimga, pozitsiyasiga ega bo'ladi. Shu jihatdan u tavsiflanishi bilan ham ajralib turadi. Muayyan pozitsiyadagi birlik ayni vaqtda muayyan nutqiy vazifaga egaligi bilan ham muhimdir. Nutq jarayonidagi lisoniy birlikning o'rni, pozitsiyasi ayni vaqtda uning nutqdagi nisbiy joylashishidir. Qiyoslang: Ko'm-ko'k osmon. Moviy dengiz to'lqinlari qirg'oqqa urilmoqda. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, qat'iy xulosa shuki, sintagmatik munosabatlar tilning bosh vazifasini-kommunikativ vazifasini ta'minlaydi.

Turk tilshunosligida ham gok leksemasi bilan bog'liq juda ko'p birliklar mavjud: go'klere chikarmak – ko'klarga ko'tarmoq, go'klere chikmak – samolarga chiqmoq, gok delinmek – osmonning teshilishi, gok gurlemek – momaqaldiroq chaqishi, go'ge merdiven dayamış – ko'kka narvon qo'ymoq, gok ada – osmon oroli; gok atlası – osmon atlası; gok bilimi – osmonshunoslik; gok boylamı – samoviy uzunlik; gok cismi – osmon jismi; gokdelen – osmono'par bino; gokdoğan – ko'kdog'; gok ekseni – osmon o'qi; gok esleđi – samoviy o'yin; gok gozlu – ko'k ko'zli; (gokguvercin, gokkandil, gok kır, gok kubbe, gok kumu, gokkuşađı, gok kutbu, gokkuzgun, gok küresi, goksoğan, gok taşı, goktırmalayan, gok tırmalayıcı, gok yakut, gokyolu, gokyüzu, küresel gok bilimi, gok delinmek[5].

Bu birikmalar va iboralar o'zbek tiliga qiyoslaganda ikki xil holat kuzatiladi. Bir qator birikmalar, ya'ni ko'k leksemasining valentlik imkoniyatlari o'zbek tilida ham kuzatiladi:

O'zbek tilida	Turk tilida
ko'k ko'zli	gok gozlu – ko'k ko'zli
ko'k yuzi	gok yuzu
ko'klarga chiqmoq	go'klere chikmak
ko'klarga chiqarmoq	go'klere chikarmak – samolarga chiqmoq
ko'k toqiga narvon qo'ymoq	go'ge merdiven dayamış – ko'kka narvon qo'ymoq
Ko'ktog'	gokdoğan – ko'kdog'

Bir qator birikuvlar o'zbek tilida kuzatilmaydi: gök gürelemek –momaqaldiroq chaqishi degan birikma o'rnida o'zbek tilida “osmon gulduragi”, “osmon guldurashi” birikmalari qo'llanadi. Turk tilida turkiy “ko'k” leksemasi ishlatiladi. O'zbek tilida fors-tojik tilidagi osmon so'zi ishlatiladi: gökdelen – osmono'par bino. Gökgüvercin “ko'k kaptar” ma'nosidagi so'z. Rang tushunchasi bir xil, güvercin (kaptar) so'zi farqlanadi. Gökkuzgun – ko'kquzg'un. Quzg'un zoonimiga nisbatan turklarda “ko'k” rang sifati berilgan. O'zbek tilida quzg'un so'zi qora rang bilan sifatlanadi: qora quzg'un. Gök atlası “ko'k atlası” degan tushuncha o'zbek tilida, deyarli, qo'llanmaydi. Bu tushuncha turk tilida kamalakka nisbatan qo'llanadi. gök bilimi – osmonshunoslik. Turk tilidagi gök delinmek (osmonning teshilishi) birikmasi o'zbek tilida uchramaydi. Yomg'ir ko'p yog'ayotgan holatga nisbatan “osmonning tubi teshildi” iborasi ishlatiladi.

Gök ada – osmon oroli; gök boylamı – samoviy uzunlik; gök cismi – osmon jismi; gök eksenı – osmon o'qi; gök eşleđi – samoviy o'yin; gökkandil, gök kır, gök kubbe, gök kumu, gökkuşađı, gök kutbu, gök küresi, göksoğan, gök taşı, göktırmalayan, gök tırmalayıcı, gök yakut, gökyolu, küresel gök bilimi, gök delinmek birikuvlari o'zbek tilida kuzatilmaydi. Gök bilimi “osmonshunoslik” o'zbek tilida astronomiya, o'zbek tilining tarixiy bosqichlarida esa “ilmi nujum” – arabcha so'zlar asosidagi forsiy izofa qo'llangan.

“Ko'k” leksemasining ham rang semasidan tashqari yana ko'plab ma'no semalari mavjud. Tadqiqot ishimizda shu semalarni ko'rsatib o'tishni ham o'rinni deb topdik.

Ko'k rang aslida tiniq osmon rangidagi moviy, zangori, umuman olganda, ko'k tusiga mos bir qancha o'xshash ranglar ham tilimizda ko'k deyiladi. Jonli so'zlashuvda ba'zan kulrang, havorang, yashil rangini ham ko'k sifati bilan ishlatamiz. Ko'k bo'ri, ko'k kaptar mana shular jumlasidandir. Chunki bo'ri va kaptarlarning ranglari ayni ko'k emas, kulrang rangning to'proq shaklidir. Lekin bu birliklar ham ko'k leksemasi bilan ifodalanadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin. Ko'k leksemasi quyidagi ma'no imkoniyatlariga ega:

- 1) yashil, sabza, ko'k o't semasi: Qarshimda tebranar ko'k barglar har on.
- 2) maysa, ko'kat semasi: Yomg'irlar yog'ib, yerda o't-o'lan ko'rına boshladi, hayvonlarni og'zi ko'kka tegdi. Ko'k terish bahonasi bilan dalalarni tusay boshlagan edi. (Cho'lpon)
- 3) rezavor o'simliklar: Ko'k solib qatqlangan mastavaning lazzatli hidi keldi. (A.Muxtor).
- 4) pishmagan, xom, barra ma'nosi: ko'k so'zi rangni ifodalash bilan birga xom, yetilmagan, g'o'r, barra kabi tabiiy hollarni ko'rsata oladi. Ko'k uzum, ko'k qalampir, ko'k piyoz, ko'k no'xat, ko'k novda kabilar. Bir tupida olma endi sarg'ayib, yiltiramoqda, bir tupida mushtday yirik olmalar ko'm-ko'k, ularga boqishning bilan tishing qamashib, og'zingga so'lak to'ladi. (Oybek)
- 5) yashil rang semasini berishda ham ba'zan ko'k beriladi: Tilimizda ba'zan “yashillik, yashil rang” semasini ko'k leksemasi ham ifodalaydi: Yiroqda samoviy ufq... Ko'zi o'ynaydi (Boqar, boqar...) Ko'ngli sovub, Ko'k o't chaynaydi (M.Ali). Bu misolda ko'k leksemasi predmetning rangini ifodalashdan ko'ra ko'proq uning turi (ho'lligi, sabza ekanligi)ni anglatmoqda. Xuddi shu holatni ko'k leksemasining choy so'zi bilan birikib kelganida ham ko'rishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Базарбаева А. Когнитивно-семантическая структура цветообозначений в английском, узбекском и русском языках. Дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 2019. – 61 с.
2. Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: проф. Т.Мирзаев, А.Мусақулов, Б.Саримсоқов. – Тошкент, 2019. – 512.
3. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 б.
4. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
5. Sesli Sözlük. Online English Turkish and Multilingual Dictionary 20+ million words and idioms.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. I –680 б.; II– 672 б.; III – 688 б.; IV - Тошкент, 2008. -608 б.; V – 592 б.
7. Бектаев К. Большой казахско-русский, русско-казахский словарь. – Алматы, 1995. – 455 с.
8. ДТС – Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – 677 с.
9. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюрские и межтюрские лексические основы на буквы “К”, “Қ”. – М.: 1997. – 363 с.
10. Мажитаева Ш., Каскатаева Ж., Хан Н. Семантика цвета в казахском языке: лингвокультуроведческий аспект. Еуропеан Ресерчар, 2013. – № 5-3. – С. 1454.